ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

MADUMAROV MAQSADJON JUMANOVICH

O‘ZBEKISTON FAUNASI CLADOCERA (CRUSTACEA: BRANCHIOPODA) TURKUMINING MORFO-BIOLOGIK VA TAKSONOMIK TAVSIFI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 595.324

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление авторефарата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Madumarov Maqsadjon Jumanovich
O‘zbekiston faunasi Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) turkumining morfo-biologik va taksonomik tavsifi 3

Мадумаров Максаджан Жуманович
Морфо-биологическая и таксономическая характеристика отряда Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) фауны Узбекистана …….…..... 29

Madumarov Maqsadjon Jumanovich
Morphobiological and Taxonomic Characterization of the Order Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) of the Fauna of Uzbekistan..... 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 59

ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

MADUMAROV MAQSADJON JUMANOVICH

O‘ZBEKISTON FAUNASI CLADOCERA (CRUSTACEA: BRANCHIOPODA) TURKUMINING MORFO-BIOLOGIK VA TAKSONOMIK TAVSIFI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/B275 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.izoology.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:	**Kuchboyev Abduraxim Ergashevich** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kamilov Baxtiyar Ganiyevich** biologiya fanlari doktori, professor
	Saparov Abdiraxman Danabayevich biologiya fanlari doktori, professor
	Zokirov Islomjon Ilxomjonovich biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.22.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232^{b} -uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, Faks: (+99871) 289-10-60; E-mail: zoology@academy.uz.).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1743-AR raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232b uy. Tel.: (+998) 71-289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 29-oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 29-oktyabrdagi №9-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

F.D. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o‘rinbosari, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda Cladocera vakillari asosan kontinental suvlarda, chuchuk, shoʻr suvlarda, vaqtincha koʻlmaklardan tortib katta koʻllargacha yashaydi. Ayniqsa, ularning bir nechta vakillari yer osti va gʻor suvlarida, dengiz va okeanlarda ham uchrashi ushbu turlarni kengroq oʻrganishga olib kelmoqda. Shunga koʻra, bakteriyalar, suv oʻtlari, detritlar bilan oziqlanadigan koʻpchilik Cladocera turlari koʻplab umurtqasizlar, baliqlar va boshqa suv umurtqali hayvonlari uchun muhim ozuqa manbai hisoblanib, ularning bir qator turlari suv sifatini, bioindikatsiya va atrof-muhit monitoringi obyektlarini shakllantiruvchi muhim organizmlar boʻlib, ularni tadqiq etish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda soʻnggi oʻn yilliklarda Cladocera turlarining tashqi morfologiyasi, anatomiyasi, embriologiyasi, ekologiyasi, xulq-atvori, fiziologiyasi, genetikasi va filogeniyasiga oid keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar doirasida amalga oshirilgan tizimli tahlillar natijasida Cladocera turlar guruhi taksonlarini aniqlash va tavsiflash yondashuvlari tubdan qayta koʻrib chiqildi. Buning asosiy sabablari sifatida turlar oʻrtasidagi morfologik farqlarning murakkabligi hamda oraliq belgilarga ega turlararo duragaylarning mavjudligini koʻrsatish mumkin. Bu holat turlar majmuasi ichida yangi avlodlarning ajratilishiga olib kelmoqda. Oʻz navbatida, bunday taksonomik oʻzgarishlar Cladocera turlarining geografik tarqalishi, mintaqaviy faunalar tarkibi hamda alohida suv havzalari zooplankton jamoalari haqidagi mavjud ilmiy tasavvurlarning yangilanishiga sabab boʻlmoqda. Shuningdek, yangi tadqiqot yoʻnalishlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bir qatorda, Cladocera turlari biologiyasiga oid zamonaviy, tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazasini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz faunasida Cladocera turlarining biologiyasini oʻrganish, ularni qoʻshni davlatlar faunasi bilan qiyosiy tahlil qilish hamda mintaqaviy kontekstda baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zoogeografik nuqtai nazardan, boshqa zoogeografik mintaqalar faunasi bilan solishtirish talab etiladi va tadqiqotni Oʻzbekiston hududi bilan cheklab boʻlmaydi. Shu bois mazkur yoʻnalishda zamonaviy bilimlar darajasini tahlil qilish, guruh sistematikasi va faunistikasining keyingi rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlash, Cladocera turlarining biologiyasini oʻrganish hamda turli xil suv havzalari zooplankton jamoalarining faunistik, zoogeografik va ekologik xususiyatlarini baholash katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori hamda BMT tomonidan 1992-yil 5-iyunda imzolangan Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyadagi vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[1]. Suv havzalarining muhim organizmlarini tashkil etuvchi Cladocera turkumi turlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ta’lim muassasalari, jumladan, Buyuk ko‘llar atrof-muhit tadqiqot laboratoriyasi (AQSh), Viskonsin universiteti Limnologiya markazi (AQSh), Eksperimental ko‘llar hududi (Kanada), Janubiy Afrika suv bioxilma-xilligi instituti (Maxanda), Avstraliya daryolar instituti, Xitoy Gidrobiologiya instituti (Xitoy), Kioto universiteti Ekologik tadqiqotlar markazi (Otsu gidrobiologik stansiyasi) (Yaponiya), Chexiya Fanlar akademiyasi Biologiya markazi Gidrobiologiya instituti (Chexiya), KU Leuven Suv ekologiyasi, evolyutsiyasi va muhofazasi laboratoriyasi (Belgiya), Ekologiya va gidrologiya markazi va Chuchuk suv biologiya assotsiatsiyasi (Buyuk Britaniya), Papanin nomidagi Ichki suvlar biologiyasi instituti (Rossiya), Severtsov nomidagi Ekologiya va evolyutsiya instituti (Rossiya), Zoologiya instituti (O‘zbekiston) va boshqa ilmiy muassasalarda olib borilmoqda.

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olingan: Cladocera guruhi uzoq vaqt davomida an’anaviy tarzda yagona Cladocera Latreille turkumi sifatida qaralgan. Biroq yaqin vaqtlargacha Cladocera taksoni sun’iy ekanligi haqidagi fikr ham mavjud bo‘lib (Starobogatov, 1986; Fryer, 1987; Flössner, 2000), keyinchalik olib borilgan morfologik va molekulyar-genetik tadqiqotlar (Hebert, Taylor, 1997; Spears, Abele, 2000; Martin, Davis, 2001; Schwentner et.al., 2018) bu qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Cladocera Branchiopoda turlarining katta qismini tashkil etadi (Dumont, Negrea, 2002; Adamowicz, Purvis, 2005; Forró va boshq., 2008), ularning aksariyati esa Anomopoda tarkibiga kiradi (Dumont, Negrea, 2002; Kotov et.al, 2013).

G‘arbiy Yevropada boshlangan ushbu tadqiqotlarning aksariyati Yevroosiyo, ayniqsa Yevropa faunasini qamrab olgan (Frey, 1982, 1987; Korovchensky, 1996, 1997; Kotov, 2013). XIX asrning o‘rtalaridan boshlab turli mamlakat va mintaqalarda Cladocera faunasi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtiruvchi monografiyalar muntazam ravishda nashr etib kelingan (Baird, 1850; P.E. Müller, 1867; Hellich, 1877; Lilljeborg, 1901). Rossiya hududi bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni umumlashtirgan A.L. Bening (1938) birinchi marta 93 turning tavsifini bergan. Keyinchalik to‘liqroq ma’lumotlar E.F. Manuilovaning (1964) «Ветвистоусые рачки (Cladocera) фауны СССР» asarida keltirilgan. Biroq bu asarlar uzoq vaqt oldin yozilgani sababli eskirgan bo‘lib, Korovchensky va boshqa

[1] Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, www.dissercat.com, researchgate.com, http://www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com, www.scopus.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

mualliflar (2021) ularni zamonaviy sistematika asosida qayta koʻrib chiqib, har bir tur uchun alohida tavsif bilan toʻldirgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Cladocera vakillarining taksonomik tarkibi, filogenetik aloqalari, morfologik belgilari va geografik tarqalishiga doir muhim ilmiy ma’lumotlar keltirilgan (Müller (1785), Dumont (2002), Benzie (2005), Forró (2008), Rasdi (2020), Artamonova (2021), Aladin (2021), Puillandre (2021), Ji (2022) va boshqalar). Olimlar tomonidan Cladocera turkumi vakillari chuchuk suv ekotizimlarining muhim tarkibiy qismi ekanligi, ular suv biotsenozlarida keng tarqalganligi, tur tarkibining boyligi hamda trofik zanjirdagi alohida oʻrni bilan ajralib turishi ta’kidlab oʻtilgan. Ushbu guruh vakillari boʻyicha dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ularning sistematikasi, morfologiyasi, ekologiyasi, biogeografiyasi hamda evolyutsion xususiyatlarini yoritishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qilgan.

MDH mamlakatlarida mazkur guruh vakillarining suv havzalaridagi morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari va taksonomik belgilarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ham keng koʻlamda olib borilgan. Jumladan, Bening (1938), Manuilova (1964), Smirnov (1971, 1976, 1992), Korovchensky (1992, 2018, 2021, 2023), Kotov (2013, 2015, 2020, 2022), Sinev (2012, 2014, 2016, 2017), Dadykin (2024) va boshqa olimlar tomonidan Cladocera turlarining diagnostik belgilari, turlararo hamda tur ichidagi farqlanish xususiyatlari, ontogenetik va ekologik oʻzgaruvchanligi, shuningdek, sistematik maqomini belgilashga oid muhim ilmiy natijalar olingan.

Oʻzbekistoda Cladocera vakillarini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy izlanishlar muayyan darajada amalga oshirilgan. Xususan, Muxamediev (1967, 1986), Mirabdullaev (1992, 1993, 1998), Raxmatullaeva (1998), Kuzmetov (2019), Abdinazarov (2018), Ginatullina (2010, 2017, 2023), Madumarov (2022, 2025), Madumarova (2025) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan respublika suv havzalarida uchraydigan Cladocera turlarining sistematik tarkibi, tarqalish xususiyatlari, ekologik holati hamda baliqchilik xoʻjaliklarida tabiiy ozuqa bazasini shakllantirishdagi ahamiyati boʻyicha qator ilmiy ma’lumotlar toʻplangan.

Biroq, hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlar Oʻzbekiston faunasi suv havzalarida tarqalgan Cladocera turlarining morfologik tuzilishi, turlarni oʻzaro farqlovchi diagnostik belgilar, ekologik omillar ta’sirida yuzaga keladigan morfologik oʻzgarishlar, suv havzalari va hududlar kesimidagi uchrash darajasi hamda zoogeografik tarqalish xususiyatlarini toʻliq qamrab olmagan.

Shu boisdan, Cladocera turlarining sistematik tarkibini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta baholash, ularning asosiy morfologik belgilarini batafsil tavsiflash, tur tarkibining suv havzalari boʻyicha uchrash holatini aniqlash, ekologik va zoogeografik tarqalish xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa, oʻz navbatida, nafaqat respublika faunasining zamonaviy tarkibini aniqlashtirish, balki hududiy biologik xilma-xilligini baholash, gidrobiologik monitoringni takomillashtirish hamda suv ekotizimlarining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Zoologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-2020092633 raqamli "O'zbekiston umurtqasizlar faunasida endemik, noyob va taksonomik jihatdan bahsli turlarning morfologik va molekulyar tahlili: nematodalar, qisqichbaqasimonlar" (2024-2029 yillar) mavzusidagi fundamental loyiha hamda Qo'qon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-19-562205662-R-1 "Sun'iy suv havzalarida mahsuldor fito, zooplanktonlarni yetishtirish texnologiyasini yaratish" (2024-2026 yillar) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston suv havzalarida tarqalgan Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) turkumiga mansub turlarning sistematik tarkibi, morfologik va biologik xususiyatlari, hududiy tarqalishini kompleks tadqiq etish hamda turlarning zoogeografik aloqadorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston suv havzalarida Cladocera turkumiga mansub turlarning zamonaviy sistematik tarkibini aniqlash;

Cladocera turlarining morfologik belgilarini o'rganish va ularning diagnostik xususiyatlarini izohlash;

Turlarning morfo-biologik xususiyatlarini, jumladan tana tuzilishi, o'sishi, rivojlanishi va biologik jarayonlar bilan bog'liq o'zgarishlarini tahlil qilish;

Turlarning ekologik xususiyatlarini aniqlash, ularning turli tipdagi suv havzalarida uchrash darajasi va tarqalishini izohlash;

Cladocera turlarining zoogeografik tarqalish xususiyatlarini tahlil qilish;

Ayrim turlarning taksonomik maqomini hamda sistematik o'rni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida shakllantirish;

Cladocera vakillarining ko'payish tizimi, rivojlanish bosqichlari va biologik o'ziga xosliklarini izohlash;

Tadqiqot natijalariga asoslanib, Cladocera turlaridan foydalanib tabiiy ozuqa yemi bazasini shaklantirish bo'yicha amaliyotda foydalanishga tavsiya etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston suv havzalarida uchrovchi Cladocera turkumiga mansub turlar faunasi, ularning tarkibi, morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari va taksonomik belgilari olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston suv havzalarida uchrovchi Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) turkumidagi turlarning morfologik tuzilishi, diagnostik belgilari, rivojlanish xususiyatlari, taksonomik o'rni, tur ichidagi va turlararo farqlanishi hamda suv havzalari bo'yicha tarqalishini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida klassik va zamonaviy usullar - gidrobiologik, morfologik, morfometrik, taksonomik, qiyosiy-faunistik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekiston suv havzalarida tarqalgan Cladocera turkumining zamonaviy sistematik tarkibining kompleks faunistik-taksonomik yondashuvlar asosida tizimli tahlili o'tkazilib, 113 turdan iboratligi aniqlangan;

ilk bor *Camptocercus uncinatus* Smirnov, 1971 va *Ilyocryptus spinifer* Herrick, 1882 turlarining morfologik xususiyatlari aniqlanib, O‘zbekiston faunasi tarkibiga kiritilishi asoslangan;

O‘zbekiston faunasida uchrovchi *Ceriodaphnia laticaudata, Ilyocryptus spinifer, Biapertura affinis, Camptocercus uncinatus, Disparalona rostrata* va *Podonevadne camptonyx* turlari morfologik-diagnostik belgilari ochib berilib, turlarni aniqlovchi morfometrik ko‘rsatkichlari asoslangan;

o‘rganilgan *Chydorus sphaericus, Moina brachiata* va *Daphnia pulex* turlar tana uzunligi, karapaks o‘lchamlari, postabdomen ko‘rsatkichlari va nisbat indekslari bo‘yicha populyatsiyalararo hamda ontogenetik morfologik variatsiyalar qiyosiy-statistik yondashuvda baholanib, mazkur belgilarning tur ichidagi fenotipik o‘zgaruvchanlikni aniqlashda diagnostik mezon sifatidagi ahamiyati isbotlangan;

O‘zbekiston Cladocera faunasining viloyatlar kesimidagi hududiy differensiatsiyasi aniqlanib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (78 tur), Farg‘ona (68 tur) va Namangan (63 tur) viloyatlari turlar boyligining asosiy markazlari ekanligi, zoogeografik tarkibda Palearktika komponenti yetakchi bo‘lib, Oriental va tropik-subtropik elementlar ham uchrashi ko‘rsatilgan hamda respublika suv havzalari faunasi tarixiy, ekologik va antropogen omillar ta’sirida shakllangan murakkab mintaqaviy tizim ekanligi asoslangan;

o‘rganilgan Cladocera turlari uchun maqbul harorat *Ceriodaphnia dubia* va *Daphnia magna* uchun 25°C, *Moina macrocopa* uchun 28°C, *Bosmina longirostris* uchun 22°C ekanligi, pH 6,5-8,5 diapazonida biologik faollik torroq optimumda (6,8-7,8) namoyon bo‘lishi hamda *Daphnia magna* va *Bosmina longirostris* uchun pH 7,0, *Moina macrocopa* va *Ceriodaphnia dubia* uchun pH 7,5 eng maqbul ekanligi isbotlangan;

Moina macrocopa turi yuqori populyatsiya zichligi (312 ind/l; Tukey HSD: $p<0,05$, *Daphnia magna* turiga nisbatan) tufayli ko‘paytirish va baliq ozuqasi uchun, *Ceriodaphnia dubia* turi USEPA standartiga nisbatan 68% ustunligi ($R^2=0,98$) bilan ekotoksikologik testlar uchun, *Daphnia magna* turi esa ilmiy tadqiqotlar uchun eng maqbul ekanligi, shuningdek, harorat nisbatan past bo‘lgan mart-may oylarida *Bosmina longirostris* turini tabiiy ozuqa sifatida ko‘paytirish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston suv havzalarida tarqalgan Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) turlarining diagnostik morfologik belgilari va taksonomik tavsiflari umumlashtirilib, ularni gidrobiologik monitoring va o‘quv jarayonida amaliy aniqlash uchun aniqlagich kalitlari ishlab chiqilgan;

Cladocera turlar tarkibi, tarqalishi va ekologik guruhlari bo‘yicha olingan ma’lumotlardan suv ekotizimlarining ekologik holati, trofik darajasi va ifloslanish darajasini baholashda hamda ekologik monitoring tizimida foydalanish yo‘llari asoslangan;

suv havzalarining biologik resurslari, xususan, zooplankton jamoalari bioxilma-xilligini muhofaza qilish hamda baliqchilik xo‘jaliklarida tabiiy ozuqa bazasidan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

baliqchilik xo‘jaliklarida baliq chavoqlari uchun tirik ozuqa sifatida *Moina macrocopa*, ekotoksikologik biotestlar uchun test-obyekt sifatida *Ceriodaphnia dubia*, laboratoriya tajribalarida model obyekt sifatida *Daphnia magna* turlaridan foydalanish tavsiya etilgan, *Bosmina longirostris* esa baliq lichinkalarining tabiiy ozuqa bazasidagi muhim komponent sifatida baholangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda zamonaviy gidrobiologik va morfologik usullar qo‘llanilganligi, olingan natijalarning mahalliy va xorijiy adabiyot ma’lumotlari bilan mosligi, morfometrik ko‘rsatkichlar zamonaviy statistik dasturlar (XLSTAT) yordamida tahlil qilinganligi, natijalarning xalqaro yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilganligi, turlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Global bioxilma-xillik axborot tizimi (GBIF) platformasiga joylashtirilganligi, shuningdek, amaliy natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston suv havzalaridagi Cladocera turkumi vakillarining tur tarkibi, tarqalish xususiyatlari, morfologik belgilari hamda ayrim turlar biologiyasining ilk bor kompleks tarzda o‘rganilganligi, ularning taksonomik, ekologik va morfo-biologik xususiyatlari haqida yangi ilmiy ma’lumotlar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan aniqlagich kalitlaridan gidrobiologik monitoring va o‘quv jarayonida foydalanish, Cladocera turlari asosida suv havzalarining ekologik holati va ifloslanish darajasini baholash, baliqchilik xo‘jaliklarida *Moina macrocopa* turidan baliq chavoqlari uchun tirik ozuqa sifatida foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda Cladocera (Crustacea: Branchiopoda) turkumining morfo-biologik va taksonomik tavsifi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Cladocera turlarining suv havzalari bo‘ylab tarqalishiga doir ma’lumotlar, jumladan, turlarning uchrash nuqtalari, suv havzalaridagi o‘rtacha miqdor ko‘rsatkichlari hamda morfologik tuzilishiga oid fotomateriallar Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘i bazasiga joylashtirilgan (Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘ining 2025-yil 11-apreldagi 035 sonli ma’lumotnomasi). Natijada Cladocera turlarini global miqyosda tahlil qilish, ularning tarqalish xususiyatlarini qiyosiy baholash hamda mintaqaviy bioxilma-xillik ko‘rsatkichlarini xalqaro ma’lumotlar bazalari asosida o‘rganish imkonini bergan;

Cladocera turkumiga tegishli *Ceriodaphnia cornuta*, *Daphnia magna*, *D. similis* va *Moina macrocopa* turlarni sun’iy boshqariladigan sharoitda ko‘paytirish va “tirik ozuqa yemi” sifatida qo‘llash yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2026-yil 3-avgustdagi 02/23-2732 sonli ma’lumotnomasi). Natijada ozuqa xarajatlari 8-10% ga qisqargan, baliq mahsuldorligi 7-8% ga oshgan, kasallanish va nobud bo‘lish darajasi esa 75-77% ga kamayish imkonini bergan;

O‘zbekistonda suv havzalarida tarqalgan Cladocera turlarini 7 ta oila, 9 ta avlodga tegishli, 20 ta turga mansub 134 ta nusxa namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Noyob kolleksiyasi fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 14-avgustdagi 4/1255-2297 sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu kolleksiya namunalari O‘zbekiston Cladocera turkumi turlari bo‘yicha zooplanktonlar fondini boyitgan va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash hamda interfaol atlaslar tayyorlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy tadqiqot ishlarining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangilik va ilmiy tadqiqotning amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Cladocera turkumining sistematikasi, o‘rganilish tarixi va zamonaviy taksonomik yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida Cladocera turkumining sistematik o‘rni va filogenetik talqinlari, O‘zbekiston Cladocera faunasining o‘rganilish tarixi hamda zamonaviy konseptual yondashuvlar uchta bo‘limda tahlil qilingan.

Jahon ilmiy manbalar chuqur tahlil qilinib, o‘rganilgan ilmiy qarashlar natijasida dunyo Cladocera turkumiga oid hulosalar umumlashtirilgan. Hozirga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlar Cladocera faunasining zamonaviy taksonomik holati, morfologik variatsiyasi va hududiy taqsimlanish qonuniyatlarini O‘zbekiston sharoitida o‘rganilmaganligi tadqidiy ko‘rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Cladocera turkumining morfo-biologik tashkil topishining nazariy asoslarini o‘rganilish usullari va materiallari”** deb nomlangan ikkinchi bobi Cladocera vakillarining tashqi morfologik tuzilishi, anatomiyasi, reproduktiv tizimi va rivojlanish biologiyasi, morfo-biologik belgilarining taksonomik ahamiyati hamda material yig‘ish, saqlash va fiksasiya qilish to‘rtta bo‘limlarda batafsil yoritilgan.

2.1-bo‘limda Cladocera turlari ikki tomonlama simmetriyaga ega ekanligi, segmentlangan tanasi bosh, ko‘krak, qorin va qorin bo‘shlig‘i bo‘limlariga ajralganligi qayd etilgan. To‘rtta asosiy kenja turkum morfologik jihatdan keskin farqlangan. Ctenopoda va Anomopoda turlarida tananing katta qismi ikki pallali qobiq bilan qoplangan bo‘lsa, Onychopoda va Haplopoda turlarida qobiq kuchli qisqargan, ko‘krak oyoqlari tashqarida qoladi. Partenogenetik urg‘ochilarning tana uzunligi 0,22 mm (*Alonella*) dan 0,6 mm (*Eurycercus*) gacha, *Leptodora kindtii* vakillari esa 1,2–1,4 mm gacha yetadi. Erkaklar urg‘ochilarga nisbatan sezilarli darajada kichikroq ayrim turlarda erkak tanasi urg‘ochi uzunligining atiga 17% ini tashkil qiladi.

Bosh tuzilishi jihatidan Ctenopoda vakillarida bosh tana uzunligining 30–55% ini tashkil etadi. Daphniidae oilasida bosh turli shakl va o‘lchamdagi o‘simtalar tikanlar, bosh qalqon, tishlar bilan ajralib turadi. Bu belgilar bitta populyatsiya doirasida ham katta farq qilishi, ya’ni siklomorfoz hodisasi namoyon qiladi. Siklomorfoz fizik muhit omillari (harorat, qattiqlik) va biotik omillar (yirtqich baliqlarning bosimi) ta’sirida vujudga keladi, bu holat ekologik moslashuv sifatida talqin qilinadi. Antennalar (I juft) barcha Cladocera turlarida kimyoviy sezgi a’zosi vazifasini bajaradi. Chydoridae turida 12 ta, ko‘pchilik Anomopodlarda 9 ta sezgir tukchaga ega. Ko‘krak a’zolari 4–6 juft bo‘lib, filtrlovchi oziqlanadigan turlarda qorin tomoni bo‘ylab oziqa ichagi o‘tadi.

Dissertasining 2.3-bo‘limida turlarning morfo-biologik belgilarning taksonomik ahamiyati: morfologik o‘zgaruvchanlik ayniqsa *Daphnia*, *Bosmina* va Chydoridae vakillarida kuchli ifodalanishi bayon etilgan. Kriptik turlar muammosi *Daphnia pulex* va *D. obtusa*, *Diaphanosoma mongolianum* va *D. lacustris* juftliklari uchun dolzarb. Turlararo gibridizatsiya ham morfologik o‘zgaruvchanlikni oshirib, tur aniqlashni qiyinlashtiradi.

Dissertasiyaning 2.4-bo‘limida tadqiqot ishi 2020-2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining Molekulyar zoologiya laboratoriyasi hamda Qo‘qon davlat universiteti bazasida bajarilganligi qayd etilgan. Dissertasiyada keltirilgan raqamli ma’lumotlar Microsoft Excel dasturida matematik va statistik usullar yordamida qayta ishlangan.

Material yig‘ish va preparatsiya protokoli: namunalar suv havzalarining pelagik, litoral, qirg‘oqbo‘yi va tubidan plankton to‘rlari va 1 litr hajmli shisha idishlar yordamida to‘plangan, 96% etil spirti bilan fiksatsiya qilingan. Laboratoriyada volfram ignalari yordamida tayyorlangan va SZM stereoskopik binokulyar mikroskop hamda MIK D-30 mikroskoplarida tekshirilgan. Morfometriya uchun 12-25 morfologik ko‘rsatkich standart sxema bo‘yicha o‘lchangan, kamida 10-15 partenogenetik urg‘ochi va erkak batafsil tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Cladocera faunasining taksonomik tahlili va faunistik ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston faunasida tarqalgan turlarning qisqacha ta’rifi, faunadagi shubhali turlar, sinonim turlar hamda taksonomik o‘rni o‘zgargan turlarning tahlili batafsil yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida O‘zbekiston suv havzalarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Cladocera turkumining 4 ta kenja turkum, 10 ta oila, 46 avlodga mansub jami 113 turi aniqlangan. Taksonomik tarkib jihatidan Daphniidae (31 tur, 27,4%) va Chydoridae (35 tur, 31,0%) oilalari eng ko‘p turli bo‘lib, faunadagi yetakchilikni egallaydi. Jami 113 turning 88 tasi amalda mavjud va tasdiqlangan turlarni, 14 tasi taksonomik maqomi aniqlashtirilishi lozim bo‘lgan shubhali turlarni, 9 tasi sinonim sifatida baholangan turlarni hamda 2 tasi fauna uchun yangi tur sifatida e’tirof etilgan taksonlarni tashkil etdi. *Daphnia* (D.) *longispina* (O.F. Müller, 1776) s. lat., *Chydorus sphaericus* (O.F. Müller, 1776) s. lat. va *Coronatella rectangula* (Sars, 1861) (12 viloyat) kiradi. *Daphnia magna* (Straus, 1820), *Daphnia galeata* (Sars, 1863), *Diaphanosoma mongolianum* Ueno, 1938 va *Moina brachiata* (Jurine, 1820) 12 ta viloyatda qayd etilgan.

“O‘zbekiston faunasida statusi noaniq Cladocera turlari va ularning tanqidiy tahlili” deb nomlangan bo‘limda faunadagi shubhali turlar tahlilida shubhali maqom uchta asosiy omil asosida belgilandi: qaydlarning tarixiyligi va uzoq vaqt davomida takroran tasdiqlanmaganligi; morfologik jihatdan yaqin turlar bilan adashtirish ehtimolining yuqoriligi; qayd qilingan biotop bilan turning zoogeografik areali o‘rtasidagi nomuvofiqlik. *Bosmina (Eubosmina) coregoni* (Baird, 1857) bo‘yicha O‘zbekistonda so‘nggi 50 yil davomida takroriy qaydlar yo‘q. *Acroperus angustatus* (Sars, 1862) keng tarqalgan *A. harpae* bilan oson adashtiriladi. *Bythotrephes longimanus* haqida aniq joy ko‘rsatilmagan va Markaziy Osiyodagi boshqa qaydlar ham yo‘q. Orol dengizi bilan bog‘liq *Cercopagis pengoi*, *Evadne anonyx*, *Podonevadne angusta* va *P. trigona* turlarining hududdan yo‘qolib ketgan bo‘lishi ehtimoli yuqori, ushbu turlar “tarixiy qayd, lokal yo‘qolish” statusida baholangan.

3.3-bo‘limning sinonim turlar tahlilida *Chydorus* avlodida *C. latus* va *C. rylovi* turlarining *C. sphaericus* sinonimi ekanligi tasdiqlandi. Sinonimlashuvning asosiy sabablari: suv havzasining gidrologik rejimi, oziqa bazasi, sho‘rlanish va harorat omillarining diagnostik belgilarga ta’siri; taksonomik konsepsiyalarning yangilanib borishi; tip namunalarning qayta tekshirilishi. *Latonopsis ferganica* Mukhamediev, 1960 nomining *L. australis* bilan sinonimlashtirilib, “endemiklik” haqidagi tarixiy tushuncha qayta baholangan.

Uchunchi bobning to‘rtinchi bo‘limida taksonomik o‘rni o‘zgargan turlar tahlilida zamonaviy sistematikada “yig‘ma” avlod *Alona* s.l. tarkibidan bir qator turlar ajratilib, yangi avlodlarga ko‘chirilganligi asoslangan. Bu o‘zgarishlar qobiq tuzilishi, postabdomen morfologiyasi, tishlar tizimi va tuklar to‘plami belgilari majmuasi asosida amalga oshirilgan. Bunday yondashuv tur soni statistikasini to‘g‘ri aks ettirish va xalqaro taksonomik kataloglar bilan hamohanglikni ta’minlash uchun muhimdir. *Prendalona* avlodi O‘zbekiston faunasida birinchi marta ro‘yxatga kiritildi.

Dissertatsiyaning **“Cladocera turlarining morfologik variabelligi va bioekologik differensiatsiyasi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida O‘zbekiston faunasi uchun yangi va qayta aniqlangan turlarning batafsil morfologik ta’rifi, oila va avlodlar diagnostikasi, populyatsiyalararo va ontogenetik variatsiya, turlarning kunlik hamda mavsumiy migratsiyalari, shuningdek aniqlagich kalitlar o‘z ifodasini topgan.

“O‘zbekiston faunasi uchun yangi va qayta tavsiflangan turlar” deb nomlangan bo‘limda O‘zbekiston faunasi uchun birinchi marta qayd etilgan yoki qayta aniqlangan 6 tur *Ceriodaphnia laticaudata* P.E. Müller, 1867; *Ilyocryptus spinifer* Herrick, 1882; *Biapertura affinis* (Leydig, 1860); *Camptocercus uncinatus* Smirnov, 1971; *Disparalona rostrata* (Koch, 1841) va *Podonevadne camptonyx* (Sars, 1897) turlarining morfologik tuzilishi, biologiyasi va tarqalishi batafsil tavsiflangan.

Ceriodaphnia laticaudata P.E. Müller, 1867. Partenogenetik urg‘ochining tanasi shaffof, oval shaklda, boshi pastga egilgan, rostrum yumaloqlangan, antennulalar qisqa. Ushbu turning asosiy diagnostik belgisi postabdomenning eng baland nuqtasi uning bazal (asosiy) qismida joylashganligi, bu *C. pulchella* va *C. quadrangula* turlaridan aniq ajratib turadi. Postabdomen tirnoqchalari butun tana bo‘ylab mayda tukchalar bilan qoplangan. Tana uzunligi 0,6–1,30 mm; efippiumi oval shaklda. Erkaklar cho‘zilgan, antennulalari uzun va harakatchan (0,70 mm gacha) (1-rasm).



1-rasm. *Ceriodaphnia laticaudata* turining chizma va mikroskopdagi rasmi (muallif: Madumarov M.). 1–partenogenetik urg‘ochi tanasining umumiy tuzilishi; 3-erkak tanasining umumiy tuzilishi; 2,4–abdomen qismi

Ilyocryptus spinifer Herrick, 1882. Partenogenetik urg‘ochining tanasi yumaloq-uchburchak shaklda. O‘ziga xos biologik xususiyati rivojlanishda po‘stini to‘liq tashlamasligi. Qobig‘ida uzun tukchalardan iborat tutam mavjud. Preanal tishchalar 5-11 ta, juft postanal tishcha qatori ham mavjud. I antennalari silindrsimon, ikki qismli, distal to‘qqizta sezgir tukchaga ega. II antennalar: tukcha formulasi 0-0-0-3/1-1-3; tikanlar 0-1-0-1/0-0-3. Ko‘krak oyoqlari I-V juft oyoqlarda epipodit va preepipodit mavjud; gnatobaza filtr qismida 4–8 ta tukcha qayd etildi. Tana uzunligi 0,75 mm gacha; balandligi 0,56 mm gacha (2-rasm). Topilgan joy: Jizzax viloyati, Arnasoy ko‘l tizimining litoral zonasi.

Biapertura affinis (Leydig, 1860). Partenogenetik urg‘ochi uzunligi 1,2 mm gacha. Ventral qirra 70–100 ta tukcha bilan qoplangan, oldingi 25 ta juda uzun. Bosh

nisbatan kichik, uchburchak-yumaloq. Asosiy diagnostik belgi ikki asosiy bosh teshigining bog‘lanishga egaligi, orqa teshik bosh teshiklar orasidagi masofadan 1–3,5 baravar uzun (3-rasm). Posteroventral burchakda tishchalarning yo‘qligi ushbu turni yaqin tur *B. sibirica* Sinev, Karabanov et Kotov, 2020 dan aniq ajratadi.

Camptocercus uncinatus Smirnov, 1971. Tanasi cho‘zilgan shaklda, kuchli yon tomondan siqilgan, dorsal qirra juda qavariq. Asosiy diagnostik belgi posteroventral burchakda tishlarning yo‘qligi, bu yaqin tur *C. rectirostris* (Schödler, 1862) dan farq qiluvchi eng muhim belgi. O‘tkir rostrumga ega. Postanal qirrada 11–13 ta uchburchak tishcha; postabdominal tirnoq preanal qismidan taxminan 1,5 baravar uzun; bazal tikani ingichka (1/6 tirnoq uzunligi). Antennulalar juda uzun (4,5 × kenglik); antennular formula: tukchalar 0-0-3/0-1-3; tikanlar 1-0-1/0-0-1. I–V ko‘krak oyoqlari batafsil tavsiflangan: I oyoq yirik, epipodit oval; V oyoq filtr plastinkasi bitta qisqa tukcha bilan jihozlangan (4-rasm). Topilgan joy: Toshkent viloyati, Tuyabo‘g‘iz suv ombori litoral zonasi.



2-rasm. *Ilyocryptus spinifer*. Partenogenetik urg‘ochi. 1,7–umumiy ko‘rinishi; 2–rostrum; 3–rostrum distal va antenna qismlari; 4,8–postabdomen; 5–suzish oyog‘i; 6–ventral tana tukchalari (muallif: Madumarov M.)



3-rasm. *Biapertura affinis*. Partenogenetik urg‘ochi. 1,6–umumiy ko‘rinishi; 2,11–suzish antennasi; 3–rostrum; 4,13,14–qobiq teshiklari; 5,7,12–postabdomen; 8,9–ventral qobiq tukchalari (muallif: Madumarov M.)

Postanal qirrada 11-15 ta kuchli tishcha, bazal tikan tirnoq uzunligining 0,25–0,35 qismiga teng. Antennal formula: tukchalar 0-0-3/1-1-3, tikanlar 1-0-1/0-0-1 (4-rasm). Ko‘krak oyoqlari olti juft, epipodit oval. Topilgan joy: Toshkent viloyati, Tuyabo‘g‘iz suv ombori drenaj tizimi.

Disparalona rostrata (Koch, 1841). Partenogenetik urg‘ochi tana uzunligi 0,30–0,50 mm. Asosiy diagnostik belgilar: ekzopodit asosiy tikanining juda uzun

boʻlishi (keyingi segment uzunligidan oshib ketishi); postabdomenning distal tomonga bosqichma-bosqich torayib borishi; postanal qirrada 8–10 chekka tishcha; postabdominal tirnoq uzun, ingichka, distal qismida egilgan, bazal qisqaroq tikan va uzunroq kuchli distal tikanga ega. Rostrum uzun, toraygan, uchi dumaloq. Antenna formulasi: 0(1)-0-3(1)/0-0-3(1). Erkakda postabdomen urgʻochiga nisbatan ingichka; rostrum qisqa va dumaloq, 11 ta sezgi tuzilmasi mavjud (5-rasm). Topilgan joylar: Toshkent viloyati Tuyaboʻgʻiz suv ombori va Buxoro viloyati Xadicha koʻli.



4-rasm. *Camptocercus uncinatus*. Partenogenetik urgʻochi. 1,13–umumiy koʻrinishi; 2,14–boshning old qismi (rostrum); 3–ventral qobiq tukchalari; 4–rostrum; 5–postabdomen; 6,15–postabdomen tirnogʻi; 7–12–koʻkrak oyoqlari (muallif: Madumarov M.)



5-rasm. *Disparalona rostrata*. 1–umumiy tuzilishi; 2–rostrum; 3–suzish antennasi; 4–postabdomen va postabdomen tirnogʻi; 5–8–koʻkrak oyoqlari (muallif: Madumarov M.)

Podonevadne camptonyx (Sars, 1897). Onychopoda kenja turkumiga mansub. Turning oʻziga xos xususiyati turda sezilarli morfologik oʻzgaruvchanlik kuzatiladi, karapaksning tashqi chizigʻi va tana orqa qismidagi tikansimon oʻsimtalar shakli boʻyicha bir nechta shakl ajratilgan. Partenogenetik urgʻochida bosh nisbatan katta, qobiqdan aniq ajralgan, suzish antennalari har birida 6 ta tishcha, tishchalar formulasi 2.2.2.1. (I–III juft koʻkrak oyoqlari ekzopoditlarida 2 tadan, IV juftida 1 ta). Gamogenetik urgʻochida bitta qishki tuxum. Urgʻochi balandligi 1,2 mm gacha, eni 0,6–0,7 mm (6-rasm). Erkakda kopulyativ naycha ingichka va uzun. Hozirgi

paytda Sariqamish ko‘lida qayd etilgan. Topilgan joy: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sariqamish ko‘li. Golarktika arealiga mansub.



6-rasm. *Podonevadne camptonyx* turining umumiy ko‘rinishi (G), I antennalari (H), ko‘krak qafasi qismlari (I)

“Oila va avlodlarning qayta ko‘rib chiqilgan diagnostik belgilaridagi farqlar” deb nomlangan bo‘limda oila va avlodlarning qayta ko‘rib chiqilgan diagnostik belgilarida *Alona* s.l. avlodining parchalanishi tahlil qilingan. *Coronatella*, *Flavalona*, *Prendalona*, *Karualona*, *Ovalona* va *Leberis* avlodlariga ajratish qobiq tuzilishi, postabdomen morfologiyasi (preanal burchak, tishchalar soni va shakli), bosh teshiklari tuzilishi hamda tuklar to‘plami belgilari majmuasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarida asosiy turlarning morfometrik ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilingan.

Ko‘plab Cladocera turlarida morfologik belgilar ekologik omillarga sezgir bo‘lib, yirtqichlar bosimi, harorat va gidrodinamika ta’sirida tana tuzilmasi o‘zgaradi. Zamonaviy diagnostika postabdomen, bosh teshiklari, ko‘krak oyoqlari va erkak jinsiy organlari morfologiyasi orqali aniq tashxis qo‘ymoqda.

1-jadval

Spina uzunligi va spina indeksi bo‘yicha morfometrik ko‘rsatkichlar (*Moina brachiata*)

№	Tur nomi va hududi	Spina uzunligi (µm)	Karapaks uzunligi (µm)	Tana uzunligi (µm)	SI_1*	SI_2**
1	*Moina brachiata* (Qoraqalpog‘iston)	420	980	1100	0,43	0,38
2	*Moina brachiata* (Navoiy)	390	950	1080	0,41	0,36
3	*Moina brachiata* (Jizzax)	460	1000	1120	0,46	0,41
4	*Moina brachiata* (Sirdaryo)	410	970	1090	0,42	0,38
5	*Moina brachiata* (Toshkent)	445	995	1110	0,45	0,40
	O‘rtacha ± SD	–	–	–	0,43 ± 0,02	0,39 ± 0,02

Izoh: * SI_1 = Spina uzunligi / Karapaks uzunligi; ** SI_2 = Spina uzunligi / Tana uzunligi

Cladocera 4 kenja turkumga ajratiladi: Haplopoda, Ctenopoda, Onychopoda va Anomopoda. Anomopoda eng turlarga boy yo‘nalish bo‘lib, planktonik (Daphniidae, Bosminidae, Moinidae) hamda litoral-bentos (Chydoridae) oilalarini o‘z ichiga oladi. Avlodlarni ajratishda postabdomen, bosh teshiklari va ko‘krak qafasi tuklari uchligi asosiy “diagnostik belgi” sifatida qaraladi.

Morfometrik tahlillarda absolut o‘lchamdan ko‘ra nisbiy indekslar ko‘proq foydali hisoblanadi. Spina indeksi (7-rasm) (SL/CL), bosh indeksi (8-9-rasm) (HL/CL), postabdomen indeksi (10-rasm) (PL/PW) va dentikul zichligi (N/PL) taksonomik farqlash va ekologik tahlilda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardir.

Moina brachiata turi misolida populyatsiyalararo morfometrik ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (1-3-jadvallar).



7-rasm. *Moina brachiata* populyatsiyalarida spina indeksi (o‘rtacha qiymat ± SD)

2-jadval

Bosh uzunligi va bosh indeksi (BI1, BI2) bo‘yicha morfometrik ko‘rsatkichlar (*Moina brachiata*)

Populyatsiya	Namuna kodi	Bosh uzunligi (mkm)	Tana uzunligi (mkm)	Karapaks uzunligi (mkm)	BI1 (Bosh/ Tana)	BI2 (Bosh/ Karapaks)
Farg‘ona	F-01	280	1120	980	0,25	0,286
Farg‘ona	F-02	265	1100	960	0,241	0,276
Jizzax	J-01	310	1150	1000	0,27	0,31
Jizzax	J-02	295	1130	990	0,261	0,298
Navoiy	N-01	275	1110	970	0,248	0,284
Navoiy	N-02	285	1125	985	0,253	0,289



8-rasm. Populyatsiyalar bo‘yicha bosh indeksi BI_1 (bosh/tana)



9-rasm. Populyatsiyalar bo‘yicha bosh indeksi BI_2 (bosh/karapaks)

3-jadval

Postabdomen uzunligi va postabdomen indeksi (PAI) bo‘yicha morfometrik ko‘rsatkichlar (*Moina brachiata*)

Populyatsiya	Namuna kodi	Postabdomen uzunligi (mkm)	Tana uzunligi (mkm)	Karapaks uzunligi (mkm)	PAI1 (Postab-domen/ Tana)	PAI2 (Postab-domen/ Karapaks)
Farg‘ona	F-01	210	1120	980	0,188	0,214
Farg‘ona	F-02	225	1100	960	0,205	0,234
Jizzax	J-01	245	1150	1000	0,213	0,245

Jizzax	J-02	235	1130	990	0,208	0,237
Navoiy	N-01	200	1110	970	0,18	0,206
Navoiy	N-02	215	1125	985	0,191	0,218



10-rasm. Populyatsiyalar bo‘yicha postabdomen indeksi PAI_1 (postabdomen/tana)

Populyatsiyalararo va ontogenetik morfologik variatsiya deb nomlangan 4.3-bo‘limida O‘zbekiston suv havzalarida Cladocera turlarining morfologik o‘zgaruvchanligi ikki asosiy yo‘nalishda kuzatiladi: populyatsiyalararo va ontogenetik variatsiya.

Populyatsiyalararo variatsiya avvalo tana o‘lchamlari va proporsiyalarida namoyon bo‘ladi. Ochiq va chuqur suv havzalarida yashovchi populyatsiyalarda tana yirik, karapaks cho‘zilgan va shaffof bo‘lsa, sayoz o‘simliklarga boy suv havzalarida tana ixchamroq, karapaks qalinroq bo‘ladi. Antennalar uzunligi va shoxlanish darajasi ham populyatsiyalararo sezilarli farqlarni ko‘rsatdi: oqim kuchli hududlarda antennalar uzun va kuchli rivojlanganligi aniqlandi.

Ontogenetik variatsiya embrional davrdan voyaga yetguncha kuzatildi. Juvenil individlarda tana kichik, karapaks yupqa, antennalar qisqa, postabdomen sodda tuzilishda bo‘ldi. Voyaga yetgan individlarda morfologik belgilar to‘liq shakllanib, urg‘ochilarda tuxum xaltachasi rivojlanadi. Juvenil shakllar ba’zan boshqa turlarning voyaga yetgan individlariga o‘xshash bo‘lishi mumkin, shuning uchun tur aniqlashda individning rivojlanish bosqichini hisobga olish muhim metodik talab hisoblanadi.

Daphniidae oilasida populyatsiyalararo variatsiya eng yaqqol namoyon bo‘ladi. Yirtqichlarga boy suv havzalarida bosh qismi nisbatan cho‘zilgan, tikanli yoki balandroq bo‘lib, himoya moslashuvi sifatida talqin qilinadi. Chydoridae oilasida esa karapaks ornamentatsiyasi, tishchalar soni va postabdomen shakli bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatilsa-da, ontogenetik o‘zgarishlar asta-sekin va izchil kechadi.

Turlarning kunlik va mavsumiy migratsiyalari deb nomlangan 4.4-bo‘limda ko‘plab pelagik qisqichbaqasimonlar aniq ifodalangan vertikal migratsiyalarni amalga oshiradi: kunduz chuqurlikka tushish, kechasi yuza tomon ko‘tarilish kuzatiladi. Baliqsiz hovuzlarda suv usti hashorotlarning mavjudligiga qarab *Daphnia* turlarining migratsiya xolati o‘zgaradi.

Karkidon suv omborida (Farg‘ona) *D. galeata* turi 12 m gacha bo‘lgan chuqurlikda yaqqol sutkalik vertikal migratsiyasi kuzatildi. Migratsiya intensivligi mavsumiy ravishda o‘zgardi, kech kuzda migratsiyalar kamaydi. Sariqamish ko‘lida *D. magna* va *D. galeata* tunda sezilarli darajada yuza tomon ko‘tarildi.

Pelagik Ctenopoda vakillari katta masofali vertikal migratsiyalar amalga oshira oladi: Qoraqalpog‘istondagi Sudoche ko‘lida *Sida* turi tunda 5-10 m yuza tomonga ko‘tarilishi kuzatildi. *Diaphanosoma mongolianum* va *D. orghidani* turlarida (Xorazm) migratsiyalar ancha sust ifodalangan, odatda 3 m dan oshmadi. O‘zbekiston ko‘llarida Cladocera turlarining vertikal migratsiyalari yetarlicha o‘rganilmagan. Tunda yuza qatlamda ularning soni ko‘proq bo‘lib to‘planishi aniqlangan.

4.5-bo‘limda esa Cladocera turkumining barcha kenja turkum oilalari va avlodlari uchun amaliy aniqlagich kalitlari bayon etilgan. Kalitlar morfologik belgilarning barqarorligi va diagnostik ahamiyatiga asoslanib tuzilgan bo‘lib, O‘zbekiston faunasida tarqalgan turlarni aniqlashda bevosita foydalanish imkonini beradi. Anomopoda turkumining oilalarini ajratishda qobiq tuzilishi, postabdomen xususiyatlari, antennulalar tuzilishi va ko‘krak oyoqlari soni asosiy belgilar sifatida qo‘llanilib, Daphniidae, Bosminidae, Moinidae, Macrothricidae, Ilyocryptidae, Chydoridae va Acantholeberidae oilalari uchun alohida aniqlagich kalitlari berildi.

“**O‘zbekiston Cladocera faunasining tarqalishi, morfometrik-statistik tahlili va eksperimental tadqiqotlar**” deb nomlangan beshinchi bobda O‘zbekiston suv havzalarida Cladocera turlarining viloyatlar kesimidagi tarqalishi, zoogeografik oblastlar bo‘yicha taqsimlanishi hamda uchta model tur misolida morfometrik-statistik tahlil natijalarini o‘z ichiga oladi. 2020–2025 yillar davomida 130 dan ortiq suv havzalarida to‘plangan dala materiallari adabiyot ma’lumotlari bilan birgalikda baholandi.

